

BOLALARNI YETUK INSON QILIB TARBIYALASH

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti Boshlang'ich ta'lim 1-kurs

Lazizasaidmuhamedova52@gmail.com +998901107832

Anotatsiya: bolalar nima uchun hozirda juda asabiy, dangasa va uyqichi bo'lib bormoqda? Nima uchun yengil osson narsaga qiziqishyapti? Bunga nima aybdor Davladmi, ota-onami, ustozlarimi, yoki o'zimi?

Kalit so'zlar: Bolalik, inson, ota-ona, kelajak, hotira, rivojlanish.

Bolalik davri inson hayotidagi eng muhim davr hisoblanadi, u davrda olingan ma'lumot insonning hotirasida to o'linga qadar qoladi. Biz kattalar bolalarning bu davrini qoldan boy bermagan holda, ilm berishimiz kerak, tajribalarimizdan kelib chiqqan holda yo'l ko'rsatishimiz kerak. Albatta shu borada halqimizning "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" degan maqoli ayni muddao.

Inson zoti dunyoga kelar ekan, izlanadi, atrof muhitni o'rganadi. Bolalarda ayni 2-3 yoshidan buyon o'rgangan har bir narsalari ularning kelajagiga, psixikasiga ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bu davrni esa ko'pchilik ota-onalar e'tibordan chetda qoldiradilar, bog'cha yoshidagi yoki bog'cha yoshiga yetmagan go'daklar bizning nazdimizda hech narsani tushunmaydigan, hayoti uxlash, ovqat iste'mol qilish va yeg'lash deb o'ylaymiz. Ammo ular shu ishlar bilan birgalikda hotiralariga kichik ma'lumotlarni qabul qila boshlashadi.

Biz kelajagimizni yetuk insonlar qo'lida ko'rishni istasak albatta bolalarimizga ilm berishimiz shart. Buni bod-bod qaytaryapmiz, chunki hamma narsaning boshlanish davri va yakun topish davri bo'lgani kabi bola tarbiyasining ham boshlanish davri mavjud va bu davrdan samarali foydalanib olishingizni hohlaymiz bunga yaqqol misolni biz "uchdan keyin kech" kitobidan ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni yangi tug'ilgan chaqaloq dastlab tabiatiga xos bo'lmagan muhitda tarbiyalansa, kelajakda uning to'liq rivojlanishi hamda tabiat in'om etgan iste'dodining shakllanishi imkoniyati yo'qoladi. Bunga misol qilib "bo'ri qizlar" tarixini olsak bo'ladi. 1920-yil Kalkutta (Hindiston) tomondagi g'ordan missionerlar tomonidan topilgan opa-singil Amala va Kamalalar tarixi. Opa-singillarni topib olgan er-xotin qizlarga insoniy qadriyatlarni, insoniy sifatlarni singdirishga qancha urinishmasin, ularda bo'rilarga xos qiliqlar namoyon bo'laveradi va barcha harakatlari behuda bo'ladi. Biz bu hikoyadan chaqaloq tug'ilishi bilan uning dunyosidagi muhit, talim-tarbiya uning kelajakda kim bo'lib ulg'ayishini aniq belgilab berishini ko'ramiz !

Hammamizga malumki biz buyuk ajdodlar davomchilarimiz. Ularning qoldirib ketgan bilimlari hali ham o'z mohiyatini yoqotmagan, hali ham ko'plab olimlarning hayratiga sabab bo'lib kelmoqda. Bu borada savol tug'ilishi tabiiy, nega biz yoshlar

orasida bunday buyuk shaxslar yetishib chiqmayapti. Mana yaqinda “pisa” loyhasi taqdimoti bo’lib o’tdi naxt 82 Davlat ichidan 81-o’rinni olibmiz. Bu juda uyatli holat menimcha. Men bularning masuliyati yoshlarni katta qilayotgan ota-onalar ko’proq onalarda deb bilaman. Chunki, ulamolimiz aytganlaridek “O’zbek ayoli bor e’tiborini bolaning bilimiga bolaning porloq kelajagiga e’tibor qaratgan edi, dunyodagi eng katta olim-u ulamolarni kimsan Buxoriyu Farobiylar, Ibn Sinoyu, Xorazmiylarni o’stirdi, voyaga yetqazdi. Hozirgi davrga kelib O’zbek ayoli bor e’tiborini to’ylarga qaratdi va dunyodagi eng xashamadli to’ylarni aynan o’zbek ayollari uyushtiryapti” degan ekanlar. Bu gapga 100% qo’shilaman. Chunki, bola hali ona qornida rivojlanar ekan u eshitadi, ong osti hotiralariga yozilib boradi, hattoki fitratiga tasir qiladi. Shuning uchun bo’lg’usi onalardan va yosh bolali onalardan iltimos qilib qolaman bolalaringizga e’tiborli bo’ling.

FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. “Uchdan keyin kech” Masuru Ibuka (Akademnashr 2020-yil)